




UO'T: 632.4. 634.8

TOKNING OIDIUM KASALLIGIGA QARSHI TALENDO ULTRA 40% EC EM.K. PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Raxmatov Asror Axrorovich 
laboratoriya mudiri, q/x f.n., katta ilmiy xodim
e-mail: asrorraxmatov465@gmail.com

Turopov Nodirjon Xakimjon o'g'li 
kichik ilmiy xodim
e-mail: nodirjonturopov43@gmail.com

Akbarov Mirjamol Mirodilovich 
katta ilmiy xodim
e-mail: mr.mirjamol0707@mail.ru

Ucharov Artyom Batievich 
yetakchi ilmiy xodim, q/x f.n.
e-mail: artyomucharov@gmail.com

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada tokning oidium kasalligiga qarshi Talendo Ultra 40% EC em.k. fungitsidi sinovdan o'tkazilgan. Birinchi kimyoviy ishlov - 15 may gullashdan oldin, ikkinchi ishlov - 29 may gullashdan so'ng, uchinchi ishlov ikkinchi ishlovdan 14 kundan so'ng 12 iyunda, to'rtinchi ishlov 26 iyunda amalga oshirilgan. Tokning oidium kasalligiga qarshi Talendo Ultra 40% EC em.k. fungitsidi 0,05 l/ga me'yorda sinovdan o'tkazilganda biologik samaradorligi barglarida - 85,2%, novdalarda -89,1% va uzum boshlarida - 87,3% ni tashkil etgan.

Kalit so'zlar: Talendo Ultra, fungitsid, nazorat, andoza, oidium, kasallanish, kasallikning rivojlanishi, biologik samaradorlik.

Аннотация. В данной статье приведены результаты применения фунгицида Talendo Ultra 40% EC к.э. (0,05 л/га) в борьбе с оидиумом виноградной лозы. Проведена 4-х кратная обработка: до цветения, после цветения, через 14 дней после второй обработки и и через 14 дней после третьей

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

обработки. Испытанный препарат в борьбе с оидиумом винограда показал хорошие результаты. Биологическая эффективность фунгицида в борьбе с оидиумом составила: на листьях - 85,2%, на побегах -89,1% и на гроздях - 87,3%.

Ключевые слова: Talendo Ultra, фунгицид, контроль, эталон, оидиум, поражаются, развитие болезни, биологическая эффективность.

Abstract. This article presents the results of using Talendo Ultra 40% EC a.e. fungicide (0.05 l/ha) to control powdery mildew on grapevines. Four treatments were applied: before flowering, after flowering, 14 days after the second treatment, and 14 days after the third treatment. The tested product demonstrated good results in controlling powdery mildew on grapes. The biological efficacy of the fungicide against powdery mildew was 85.2% on leaves, 89.1% on shoots, and 87.3% on grape clusters.

Keywords: Talendo Ultra, fungicide, control, standard, powdery mildew, susceptibility, disease development, biological efficacy.

KIRISH

Uzumchilikni yanada yuqori pog'onalarga ko'tarishda fermerlar fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni o'z vaqtida va yuqori agrotexnika darajasida amalga oshirish bilan birga tokzorlarni kasallik va zararkunandalardan samarali himoya qilish ishlariga chuqur e'tibor berishlari talab etiladi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 iyul kuni uzum yetishtirish, uni sanoat usulida qayta ishlashni rivojlantirish hamda hududlarda ekoturizmni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda respublikamizda uzumchilikning jadal rivojlantirish, uzum hosildorligini oshirish maxsulot sifatini yaxshilash hamda ulardan qayta ishlash sanoatida tayyorlanadigan maxsulotlarni ko'paytirish xalqimizning uzumga bo'lgan talabini to'la qondirishga hamda soxaga ilm va innovatsiyalarni keng joriy etish masalasiga aloxida e'tibor qaratildi.

Tokning un shudring (oidium) kasalligi butun dunyo bo'ylab uzumchilik mintaqalarida keng tarqalgan. Eng katta zarar issiq, issiq iqlimi bo'lgan hududlarda qayd etiladi [3].

Tokning un shudring (oidium) kasalligi hosilning sifat va miqdoriy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar nazorat choralari o'z vaqtida o'tkazilmasa yoki ular yo'q bo'lsa, hosilning yo'qotilishi 50% yoki undan ko'p bo'lishi mumkin [4].

Tokning un shudring (oidium) kasalligiga qarshi agrotexnik tadbirlar: zararlangan novdalarni olib tashlash; tokning aeratsiya sharoitlarini yaxshilash; faqat sog'lom ekish materialidan foydalangan holda uzumzorlar yaratish; chidamli navlarni ko'paytirish [5, 6, 8].

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Fransiyada ko'plab kasalliklarga (oidium, mildyu va boshqalar) qarshi, yarim soat ichida o'simlik to'qimalariga kirib boradigan Mikal fungitsidi (50% fasetil - AL + 25% felpet) yaxshi natijalar ko'rsatdi va 3 hafta davom etadigan faol ta'sirni ta'minlaydi [1, 9].

Adabiyot ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, oidium eng keng tarqalgan va zararli kasallik bo'lib, uzum yetishtiriladigan hududlarda katta zarar keltiradi. Muayyan kasallikning tarqalishi ham xilma-xillikka, ham mintaqaning tuproq va iqlim sharoitiga bog'liq.

MATERIALLAR VA USULLAR

Kasallikning tarqalishini hisob-kitob qilish VIZR ning (1985) [2] yilgi va Davlat Kimyo Komissiyasining (2004) [7] uslubiy qo'llanmalariga asosan bajarildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

2025-yil Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani "Moviy marvarid" fermer xo'jaligining 5,0 gektar tokzorida Talendo Ultra 40% EC em.k. fungitsidi 0,05 l/ga me'yorlarda tokning oidium kasalligiga qarshi sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari ma'lumotlariga ko'ra, nazorat variantda toklarga kimyoviy ishlov o'tkazilmaganda, oidium kasalligi bilan tokning barglari - 43,1%, novdalari - 22,4% va uzum boshlari - 35,3% ni, kasallikning rivojlanishi esa mos ravishda 19,1%, 9,4% va 12,6%.



1-rasm. Hisob-kitob jarayoni

Talendo Ultra 40% EC, em.k. fungitsidi 0,05 l/ga me'yorda oidium kasalligiga qarshi sinovdan o'tkazilganda yaxshi natija ko'rsatdi va kasallanish tokning barglarida - 6,0%, novdalari - 3,0% va uzum boshlari - 4,6% ni, biologik samaradorligi barglarida - 85,2%, novdalarda -89,1% va uzum boshlarida - 87,3%, kasallikning rivojlanishi mos ravishda 1,2% dan 3,2% gachani tashkil etgan.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Andoza variantda, PANCHEM 400 g/l, em.k. fungitsidi 0,05 l/ga me'yorda qo'llanilganda, biologik samaradorlik barglarda – 82,7%, novdalarda – 82,9% va uzum boshlarida – 80,9% ni tashkil etgan.

1-jadval.

Tokning oidium kasalligiga qarshi Talendo Ultra 40% EC, em.k. fungitsidining biologik samaradorligi.

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani "Moviy marvarid" fermer xo'jaligi, 2025 y.

№	Preparatlar	Sarf me'yori, kg/ga	Zararlangan a'zolar	kasallanish, %	Kasallikning rivojlanishi, %	Biologik samaradorlik, %
1.	Nazorat – dori sepilmagan	-	barglarda	43,1	19,1	-
			novdalarda	22,4	9,4	-
			uzum boshlarida	35,3	12,6	-
2.	PANCHEM 400 g/l, em.k. (andoza)	0,05	barglarda	8,3	3,3	82,7
			novdalarda	2,6	1,6	82,9
			uzum boshlarida	5,6	2,4	80,9
3.	Talendo Ultra 40% EC em.k.	0,05	barglarda	6,0	2,8	85,2
			novdalarda	3,0	1,0	89,1
			uzum boshlarida	4,6	1,6	87,3

XULOSA

Tokning oidium kasalligiga qarshi Talendo Ultra 40% EC em.k. fungitsidi 0,05 l/ga me'yorda sinovdan o'tkazilganda biologik samaradorligi barglarida – 85,2%, novdalarda -89,1% va uzum boshlarida - 87,3% ni tashkil etdi.

ADABIYOTLAR

1. Агапова С.И., Бурдинская В.Ф., Толокова Р.П. Оидиум на виноградниках Нижнего Придонья // Защита и карантин растений. – Москва, 1999. – №9. –С.19.
2. Котикова Г.Ш., Алексеева С.П. Методические указания по государственным испытаниям фунгицидов, антибиотиков и протравителей семян сельскохозяйственных культур // Москва.: 1985.С.106–108.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

3. Пересыпкин В.Ф. Болезни сельскохозяйственных культур. Том 3. Болезни овощных и плодовых культур, Киев: Урожай, 1991. — 208 с.
4. Пересыпкин В.Ф. Сельскохозяйственная фитопатология, 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Агропромиздат, 1989. - 480 с.
5. Испытание новых фунгицидов против оидиума виноградной лозы в условиях Кировабад - Казахской зоны Азербайджана./ Рагимов У.А., Искандеров Д.А., Ахмедов С.А., Рзаева С.И. // Актуал. вопр. защиты раст.: Матер. 13 Сес. завак. сов. по координац. н.- и. работ по защите раст., нояб. - Кировабад, 1988. -С. 46-47.
6. Доброзракова Т.Л. Сельскохозяйственная фитопатология, 2 - е изд., испр. и доп. Под редакцией М.К. Хохрякова, Ленинград: изд. «Колос», 1974. - 382 с.
7. Хо'jaev Sh.T. va b. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar (II-nchi nashr). - Toshkent, 2004. - 104b.
8. Asror Rakhmatov, Asamidin Kholliiev, Uygun Tashpulatov, Shahnoza Haydarova. Damage periods of the main diseases occurring in vineyards during the annual development phases. Tashkent State Agrarian University, Tashkent, 100140, Uzbekistan 2 Research Institute of Plant Protection and Quarantine, Tashkent, 100066, Uzbekistan. E3S Web of Conferences 563, 03002 (2024) <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303002> ICESTE 2024
9. Herve S., Philippe C., Michel C., Lafot R. Une resistance de l 'oidium au Portugal. - Phytoma: Def. cult. 1988. -№ 402. -P.49-50.